

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim

2024-yil yakuni bo'yicha.


- I. Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari
- II. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni
- III. 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi
- IV. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar
- V. Maktabgacha ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti — maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilot.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faqat davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etiladi.

Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



2024-yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining umumiy soni, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'shgan holda, **38 058 tani** tashkil etgan va 2023-yil yakuniga nisbatan **2 085 taga**, ya'ni **5,8 % ga** oshgan.

O'zbekiston Respublikasidagi oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni esa 2024-yil yakuniga ko'ra **28 729 tani** tashkil etgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan **1 871 taga**, ya'ni **7,0 % ga** ko'paygan.

Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini
hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024-yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni		Jumladan, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni	
	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi
O'zbekiston Resp.	38 058	100,0	28 729	100,0
Qoraqalpog'iston Resp.	1 874	4,9	1 269	4,4
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	4 324	11,4	3 529	12,3
Buxoro	2 153	5,7	1 518	5,3
Jizzax	1 709	4,5	1 370	4,8
Qashqadaryo	4 216	11,1	3 544	12,3
Navoiy	1 466	3,8	1 147	4,0
Namangan	3 962	10,4	3 207	11,2
Samarqand	4 507	11,8	3 519	12,2
Surxondaryo	3 077	8,1	2 421	8,4
Sirdaryo	1 145	3,0	893	3,1
Toshkent	2 340	6,1	1 565	5,4
Farg'ona	4 189	11,0	3 069	10,7
Xorazm	2 049	5,4	1 571	5,5
Toshkent sh.	1 047	2,8	107	0,4

2024-yil yakuniga ko'ra hududlar kesimida eng ko'p faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari Samarqand (**4 507 ta**), Andijon (**4 324 ta**) va Qashqadaryo (**4 216 ta**) viloyatlarida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar esa Toshkent shahri (**1 047 ta**), Sirdaryo (**1 145 ta**) va Navoiy (**1 466 ta**) viloyatlarida kuzatilgan.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkichlar Qashqadaryo (**3 544 ta**), Andijon (**3 529 ta**) va Samarqand (**3 519 ta**) viloyatlariga to'g'ri kelgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Toshkent shahri (**107 ta**), Sirdaryo (**893 ta**) va Navoiy (**1 147 ta**) viloyatlarida qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni \(jami\)](#)
[Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni \(shahar\)](#)
[Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni \(qishloq\)](#)
[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni \(jami\)](#)
[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni \(shahar\)](#)
[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni \(qishloq\)](#)

II. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni

2024-yil yakuniga bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar soni **2 350,0 ming nafarni** tashkil etgan va 2023- yil yakuniga nisbatan **180,5 ming nafarga** yoki **8,3 % ga** oshgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



Kuzatilayotgan davr mobaynida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan qiz bolalar soni **168,9 ming nafarga**, ya'ni **18,4 % ga** oshgan bo'lsa, o'g'il bolalar soni **11,6 ming nafarga**, ya'ni **0,9 % ga** ko'paygan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

(2024-yil yakuni bo'yicha, ming kishi)

	Jami bolalar soni	Jamiga nisbatan % dagi ulushi	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
O'zbekiston Resp.	2 350,0	100,0	1 086,0	1 264,0	46,2	53,8
Qoraqalpog'iston Resp.	123,7	5,3	51,4	72,3	41,6	58,4
<i>viloyatlar:</i>		0,0				
Andijon	246,1	10,5	120,7	125,4	49,0	51,0
Buxoro	133,1	5,7	58,9	74,2	44,3	55,7
Jizzax	105,0	4,5	50,2	54,8	47,8	52,2
Qashqadaryo	202,8	8,6	102,7	100,1	50,6	49,4
Navoiy	73,5	3,1	31,5	42,0	42,9	57,1
Namangan	209,0	8,9	102,1	106,9	48,9	51,1
Samarqand	267,3	11,4	124,5	142,8	46,6	53,4
Surxondaryo	182,4	7,7	75,9	106,5	41,6	58,4
Sirdaryo	63,4	2,7	29,2	34,2	46,1	53,9
Toshkent	167,8	7,1	76,7	91,1	45,7	54,3
Farg'ona	284,6	12,1	137,2	147,4	48,2	51,8
Xorazm	129,2	5,5	62,3	66,9	48,2	51,8
Toshkent sh.	162,1	6,9	62,7	99,4	38,7	61,3

2024-yil yakuniga bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning eng ko'p qismi Farg'ona (**284,6 ming**), Samarqand (**267,3 ming**) va Andijon (**246,1 ming**) viloyatlarida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**63,4 ming**), Navoiy (**73,5 ming**) va Jizzax (**105,0 ming**) viloyatlarida kuzatilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi (**50,6 %**) o'g'il bolalar ulushiga nisbatan yuqori bo'lgan. Boshqa barcha hududlarda esa o'g'il bolalar ulushi yuqori bo'lgan. Ularning eng ko'p qismi Toshkent shahri (**61,3 %**), Surxondaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (har bir hududda **58,4 % dan**) to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni \(jami\)](#)
[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni \(qiz bolalar\)](#)
[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni \(bolalar\)](#)
[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni \(shahar\)](#)
[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni \(qishloq\)](#)


III. 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi

3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi, ushbu yoshdagi bolalar orasidan qancha qismi maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovining o'sishi kuzatiladi. Xususan, 2020-yil yakuni bo'yicha 3-6 yoshdagi bolalarning **50,9 %** i maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bo'lsa, 2024-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich **72,4 % ga** yetdi.

3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi

(tegishli yil yakuni bo'yicha, % da)



2024-yil yakunida 3-6 yoshli o'g'il bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi **74,9 % ni**, qiz bolalarning qamrovi esa **69,6 % ni** tashkil etgan. 2020-yil ma'lumotlariga nisbatan qiz bolalarning qamrovi **18,4 f.p.ga**, o'g'il bolalarniki esa **24,2 f.p.ga** oshdi.

**3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovining
hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2024-yil yakuni bo'yicha, % da)

	Jami bolalar qamrovi	Qiz bolalar qamrovi	O'g'il bolalar qamrovi
O'zbekiston Resp.	72,4	69,6	74,9
Qoraqalpog'iston Resp.	80,0	68,5	90,9
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	80,0	82,2	77,9
Buxoro	81,6	75,3	87,5
Jizzax	72,4	72,3	72,4
Qashqadaryo	59,3	63,0	56,0
Navoiy	79,1	70,5	87,0
Namangan	72,5	73,7	71,4
Samarqand	68,1	65,9	70,1
Surxondaryo	64,1	55,6	72,0
Sirdaryo	78,2	74,5	81,7
Toshkent	67,8	64,4	70,9
Farg'ona	79,7	79,6	79,8
Xorazm	79,5	79,6	79,3
Toshkent sh.	71,1	56,7	84,7

Agar 2024-yil yakuniga ko'ra, 3–6 yoshli bolalarning eng ko'p qismi Buxoro (**81,6 %**), Andijon (**80,0 %**) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**80,0 %**) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past qamrov Qashqadaryo (**59,3 %**), Surxondaryo (**64,1 %**) va Toshkent viloyatiga (**67,8 %**) to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi](#)


[1-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi](#)

IV. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni maktabgacha ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Bolalar bog'chalari malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish darajasiga, shuningdek, ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirishga bevosita ta'sir qiladi.

2024-yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan pedagog xodimlar soni **174,6 ming nafarni** tashkil etgan va 2023-yilga nisbatan **7,0 mingtaga**, ya'ni **4,2 % ga** oshgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



¹⁾ 2020-2022- yillar yakuni bo'yicha berilgan ma'lumotlar oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar sonisiz keltirilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024-yil yakuni bo'yicha, ming kishi)

	Jami pedagog xodimlar soni	Jamiga nisbatan % dagi ulushi	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
O'zbekiston Resp.	174,6	100,0	167,0	7,6	95,6	4,4
Qoraqalpog'iston Resp.	10,0	5,7	9,5	0,5	95,0	5,0
<i>viloyatlar:</i>		0,0			0,0	0,0
Andijon	17,9	10,2	17,4	0,5	97,2	2,8
Buxoro	11,3	6,5	10,7	0,6	94,7	5,3
Jizzax	7,4	4,2	7,1	0,3	95,9	4,1
Qashqadaryo	14,3	8,2	13,8	0,5	96,5	3,5
Navoiy	6,4	3,7	6,4	0,0	100,0	0,0
Namangan	16,7	9,6	15,9	0,8	95,2	4,8
Samarqand	18,2	10,4	17,4	0,8	95,6	4,4
Surxondaryo	11,1	6,4	10,5	0,6	94,6	5,4
Sirdaryo	4,4	2,5	4,0	0,4	90,9	9,1
Toshkent	12,1	6,9	12,0	0,1	99,2	0,8
Farg'ona	23,2	13,3	22,4	0,8	96,6	3,4
Xorazm	9,1	5,2	8,6	0,5	94,5	5,5
Toshkent sh.	12,5	7,2	11,3	1,2	90,4	9,6

Agar 2024-yil yakuni bo'yicha hududlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlarning eng ko'p qismi Farg'ona (**23,2 ming**) va Samarqand (**18,2 ming**) viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (**4,4 ming**) va Navoiy (**6,4 ming**) viloyatlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni \(jami\)](#)

V. Maktabgacha ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Maktabgacha ta'lim bola hayotidagi eng muhim bosqich bo'lib, u bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shaxsning shakllanishiga, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga ta'sir qiladi va ularning kelajagini belgilaydi. Garchi bu bolalar rivojlanishining turli sohalari bo'lsada, ular o'zaro bog'liqdir. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim, ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi va uning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar integratsiya yo'li bilan olinadigan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ma'muriy ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar vazirlik tomonidan har yili taqdim etiladi.

Maktabgacha ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni, ulardagi guruhlar va o'rinlar soni, bolalar va pedagog xodimlar soni, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Ushbu ma'lumotlar Respublika va hududlar kesimida taqdim etilib, hisobot yili yakuni bo'yicha keltiriladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: 71-202-80-00 (1300, 1305)

